



## FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDAGI TAHLILI VA TASNIFI

Farg‘ona Davlat Universiteti chet tillari fakulteti nemis tili yo‘nalishi 1-kurs  
talabasi **Muslima Xolmatova**

Gmail: [kamian1454@gmail.com](mailto:kamian1454@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frazeolgik birliklar, ya'ni iboralar va maqollar haqida tushunchalar, ularning o‘zbek va nemis tilida qo‘llanilish doirasi va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Bundan tashqari, ikki til o‘rtasidan bu birliklarning anglatadigan mazmun-mohiyati, tahlili va tasnifi batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** frazeolgik birlik, maqollar, tarjima mahorati, frazeologik monosemiya, frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya.

Xalq og‘zaki ijodi xalqning qadimiy tarixi, azaliy va buyuk qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Uni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga yetkazish, mazmuniga putur yetkazmagan holda qo‘llash shu millatga mansub aholining, o‘z tarixi va ajdodlariga ko‘rsatgan eng buyuk hurmat ehtiromi namunasidir. Birinchi o‘rinda shuni e’tirof etish kerakki, xalq og‘zaki ijodida dostonlar, to‘y-marosim qo‘shiqlari bilan birgalikda maqollar ham asosiy o‘rinda egallaydi. Bundan tashqari tilimizda “iboralar” deb ataluvchi til birliklari ham mavjud bo‘lib, ular ham nutqqa tayyor holda olib kiriladi, nutq jarayonida yangidan yaratilmaydi. Maqol va matallar, iboralar—bularning barchasi umumlashtirilib, fanda “frazeologik birliklar” deb ataladi. O‘zbek tilshunos olimlaridan A.Mamatov “Frazeologizmlarning shakllanish asoslari”, “O‘zbek tilida frazeologik shakllanish masalalari”, Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”, N.Suvonovlar “Frazeologiyaning sistem-sath birligi sifatidagi talqini” kabi asarlarida shu mavzuga doir masalalar ko‘rib chiqishgan va o‘zlarining tadqiqotlari orqali batafsil yoritib berganlar. Aslida, barcha xalqlar uchun umumiy fikrlar bor, Lekin har bir xalq o‘zining



hududiy, etnografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'z fikrlarini ayri-cha bir tarzda ifodalaydi. Bu esa o'zbek va nemis tilidagi maqollar qiyoslab taqqoslanganda ham yaqqol aks etadi. Masalan: Nemis xalqi orasida ko'p qo'llaniladigan "Zeit ist Geld"

maqoli olinadigan bo'lsa, uning so'zma-so'z tarjimasini "Vaqt puldir" degan mazmun kelib chiqadi. Bu maqol esa o'zbek xalqining mashhur "Vaqtning ketdi-naqding ketdi" maqoli bilan mazmunan uyg'unlik kashf etadi.

Der Zeit ist der beste Arzt— Bu maqol uchun tom ma'noda xalqimizning "Vaqt eng yaxshi davodir" maqoli bilan mazmunan yaqinlik hosil qiladi. Bundan tashqari "Keine Rose ohne Dornen", "Wer sucht, der findet", "Lügen haben kurze Beine" kabi maqollar o'zbek tilidagi "Tikansiz gul bo'lmas", "Izlagan imkon topar", "Yolg'onning umri qisqa" kabi maqollarimiz bilan o'zaro hamohanglik, mazmuniy yaqinlik kasb etadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan maqollardagi mazmun fikrlarini ularda ishtirok etgan so'zlarning tarjimasidanoq anglab olish mumkin, bu jarayon ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq ayrim maqollar borki, ularni to'g'ridan to'g'ri boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydi. Bu borada yuqori darajali so'z boyligi, tarjima borasidagi malaka va mahorat talab etiladi. Misol tariqasida shuni ko'rsatib o'tish mumkin:

Wer A sagt, dann muß auch B sagen.

Bu maqol so'zma-so'z tarjima qilinsa, "Kim A harfini aytsa, B ni ham aytishi kerak" degan jumla paydo bo'ladi. Lekin shu o'rinda bu nemis maqolining asl mazmuni qanday, savol tug'ilishi tabiiy. Bunda bizga so'z boyligi va fikrlash yordamga keladi. Maqol tahlil qilinadigan bo'lsa, alifbo bo'yicha A harfidan keyin B harfi keladi, ya'ni shu yo'sinda davom etadi. Xo'sh, o'zbek maqollaridan qaysi biri bu maqol uchun muvofiq, ya'ni ekvivalent bo'la oladi?

Boshlagan ishingni oxiriga yetkazmay qo'yma. Aynan mana shu maqoli to'laligicha mos keladi. Chunki bu maqol insonni qat'iyat, sabr kabi fazilatlarini



egallashga, boshlangan ishni o'z vaqtida oxirigacha yetkazishga undaydi. Quyida yana bir qancha misollar keltirilgan:

Nord, Süd, Ost und West,

Daheim IST das Best '

Tarjimasi: "O'z uying – o'lan to'shaging".

Bu misollardan shunday xulosa qilish mumkinki, maqollardan ko'zlangan maqsad ham, ilgari surilgan g'oyalar ham nemis xalqi bilan o'zaro yaqinlik, hamohanglikni ifoda etadi. Faqat so'zlar va tillar boshqacha shaklda xolos. Shunday bo'lsada, har ikkala tilda ham maqollarning tarbiyaviy ahamiyati sira o'zgarmagan.

Bunday birliklarning yana biri ibora bo'lib, frazeologizm – bu tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga teng bo'lgan, umumlashgan ma'no anglatadigan leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un leksik-semantik birlikdir. [1]

Demak, bu qoidaga tayangan holda shuni aytish mumkinki, iboralar ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma'nosi bir so'zga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi so'z yoki so'zlar birikmasi ibora ekan. [2]

O'zbek tilida "Toshtag'ir" degan ibora bor. Bu ibora bemehr, qahri qattiq insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Shakl jihatidan esa so'z birikmasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari kundalik nutqimizda ko'p qo'llaniladigan "arpasini xom o'rmoq", "do'ppisini osmonga otmoq", "yulduzni benarvon urmoq" kabi iboralar esa shakl jihatidan gapga teng. Shu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Iboralarning nutqimizdagi vazifasi nima? Ular nutqimizning ta'sir darajasini oshiradi, ifodalilik, emotsional boyoqdorligini ta'minlaydi.



Frazeologizmlar mazmunan rang-barang bo‘lib, ular yordamida afsuslanish ,kesatiq, quvonch-xursandchilik kabi ma’nolar aks ettiriladi. Masalan:

“Og'zi qulog'i yetgan”–“juda xursand”

“Kapalagi uchmoq”–“nihoyatda qattiq qo‘rqmoq”

“Hafsalasi pir bo‘lmoq”–“biror ish qilish niyati yo‘qolmoq”

Shu kabi iboralar nutqimizda ko‘p qo‘llaniladi. Shuningdek, har bir iboraning o‘z qo‘llanilish o‘rni bor. Ularni muloqot jarayonida tematik jihatdan ham, me’yoriy jihatdan ham to‘g‘ri qo‘llay olish bu boradagi savodxonlikdan dalolat beradi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, A.Mamatov o‘z ilmiy asarlarida frazeologik normaning nazariy va amaliy muammolarini o‘rtaga qo‘yadi va ularning tahliliga to‘xtalib o‘tadi. “Frazeologik norma–bu nutq amaliyotida mustahkamlangan ,an’anaviy izchil, bir tipli va teng baholi bo‘lgan frazeologizmlarning qo‘llanilish, ma’lum davrda til jamoasi tomonidan ma’qul deb qabul qilingan va to‘g‘ri hamda namunali deb anglangan til hodisasidir”. Iboralar semantik jihatdan tahlil qilinganda ,ularni monosemik , polisemantik, sinonimik frazeologizmlarga ajratib o‘rganish usuli ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.[3] Misol uchun, nemis tilida mavjud bo‘lgan “Von A bis Z ” iborasi tahlili haqida so‘z ketganda, barchaga ma’lumki, nemis alifbosida A eng bosh harf, Z esa oxirgi harfdir. Bu birlikning ekvivalenti kundalik nutqimizda ko‘p qo‘llaniladigan “miridan sirigacha”, “boshidan oyoq”, “ipidan ignasigacha” iboralari bo‘la oladi. Qolaversa, yana bir qancha o‘zbek va nemis iboralari borki, ular ham bir



ma'noli,ya'ni monosemik iboralarga misol bo'la oladi. Quyida ularga yana bir qancha misollar berildi:

O'zbek tilidagi

“Qo‘yi mingga yetmoq”–“juda quvonmoq”

“Soyasiga ko‘rpacha solmoq”–“izzat-hurmatni me'yordan oshirib yubormoq”kabi birliklar,nemis xalqining

“Ganz Ohr sein”–“jon-qulog'i bilan eshitmoq”

“In den Wind reden”–“behuda ,o‘ylamay gapirmoq” iboralaridir.

### **Polisemantik iboralar tahlili:**

Bunday birliklar birdan ortiq ma'nolarni ifodalay oladi.O'zbek tilidagi quyida keltirilgan iboralar ham ko'p m'noli birlilarga misol bo'la oladi:

“Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq”–1)tanishdek tuyulmoq;2)o‘ziga tortmoq,yoqimli bo‘lmoq

“Lom–mim demadi”–1)gapirmadi;2)e'tiroz qilmadi

“Tishi o‘tmaydi”–1)biror narsani chaynashga,maydalashga qurbi yetmaslik;2)yenga olmaslik;3)idrok qilolmaslik,tushunib ololmaslik

Misollardan shuni ko‘rishimiz mumkinki,bunday iboralar o‘zida ikki yoki undan ortiq mazmuni ifodalashi mumkin. Nemis tilida ham bu kabi misollar juda ko‘plab topiladi .

“Schmetterlingen im Bauch haben” –1)kimnidir sevib qolmoq;2)juda qattiq hayajonlanmoq

“Jemanden (etwas) zu Fall bringen”–1)amaldan tushirmoq;2)barbod qilmoq;3)boshini aylantirmoq

“Bei der Sache sein”–1)biror ish bilan band bo‘lmoq 2)diqqat bilan eshitmoq,jon-quloq bo‘lmoq



Mana shu nemis tilida qo‘llaniluvchi iboralar ham bimalol polisemantik iboralar sifatida qo‘llanila oladi. Bunga qo‘shimcha ravishda shuni ham aytib o‘tish kerakki, frazeologik birliklar o‘zaro sinonimlik ham hosil qila oladi. Bunga misol tariqasida birinchi bo‘lib o‘zbek tilidagi iboralardan keltirish mumkin.

“Do‘ppisini osmonga otmoq”

“Og'zining tanobi qochmoq”

“Terisiga sig'may ketmoq”

Bu har uchala ibora ham o‘zaro ma’noviy yaqinlik hosil qiladi va behad quvongan, qattiq xursand bo‘lgan insonlarga nisbatan qo‘llaniladi.

“Tirnoq ostidan kir qidirmoq”

“Qildan qiyiq axtarmoq”

Bu iboralar ham kundalik nutqimizda juda ko‘p qo‘llaniladigan birliklar hisoblanib” yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qilish “ ma’nosida qo‘llaniladi. Nemis tilida esa bu holat

“Schmetterlingen im Bauch haben”

"Sich verknallt haben"

“Jemanden ins Herz schließen”

iboralari ma’nodosh hisoblanadi va bu birliklarning barchasi “ko‘ngil qo‘ymoq”, “sevib qolmoq” degan ma’nolarni bildiradi.

“Jemanden auf den Palma bringen” – “Jemanden auf die Nerven gehen”

“Jemanden die Daumen drücken” – “Hals und Beinbruch wünschen”

Frazeologik birliklar mavzusi juda keng qamrovli ekanligini unutmagan holda zid ma’noli iboralar borasida ham to‘xtalib o‘tish lozim. Barcha narsaning ziddi, ya’ni teskarisi bo‘lgani kabi iboralar o‘rtasida ham bir-biriga qarama-qarshi ma’no anglatadiganlari ham bor:

“Yerga ursa, ko‘kka sapchidyigan” - sho‘x

“Qo‘y og'zidan cho‘p olmagan” - yuvosh

“Yulduzni benarvon uradigan” - o‘ta abjir, chaqqon, chapdast



“Og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadigan”-lallaygan

Endi esa nemis tilidagi zid ma'noli iboralar tahlili:

“Schwein haben”-omadi kelmoqchi

“Pech haben”-omadi kelmaslik,muvaqqiyatsizlikka uchramoq

“Mehr Glück als Verstand haben”-baxti kulib boqmoq ,omadi kelmoq

“auf keinen grünen Zweig kommen”-omadi yurishmaslik

Xulosa: Mana ikki til doirasida maqollarning ham , iboralarning ham har ikkala frazeologik birliklarning tahlili batafsil yoritib berildi . Bundan kelib chiqadiki,ular xoh o'zbek tili bo'lsin, xoh nemis tili , har ikki tilda ham yaxlit shaklga ega bo'lib ,muayyan bir ma'nolarni ifodalashi uchun xizmat qiladi.Bunday frazeologik birliklarning vazifalarida u qadar katta tafovutli jihatlar yo'q.Iboralar ham tilning eng muhimi tasviriy-uslubiy vositalaridan biridir.Ularning aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo'lib,kuchli ma'no ifodasi bilan,yorqin emotsional-ekspressivligi bilan tilda yashaydi.Bunday iboralar xilma-xil tasviriy-uslubiy vazifalarni bajaradi,bunga ulardagi mavjud rang-barang uslubiy bo'yoq imkoniyat yaratadi.[4] Bu maqolada frazeologik birliklar,yani maqollar va iboralar tahlili va tasnifi mavzusida so'z bordi.Bu birliklar nemis va o'zbek tillari misolida o'zaro taqqoslandi.Ikki tildagi muloqot jarayonida ularning qo'llanilishi,o'xshash va farqli jihatlari yoritib berildi. Ularning nutqdagi vazifasi,qo'llanilish doirasi,uslubiy xususiyatlari to'g'risida tushunchalar berib o'tildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Mamatov.”Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik normalar va muammolari” 210-bet
2. M.Ahronqulova"Hozirgi o'zbek adabiy tili" 1-qism 38-bet
3. Qo'shnazarova Maftuna "Frazemalarda antisemiya".21-betlar



4. M.Ahronqulova 1-qism,85-86 betlar

1. A.Mamatov."Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik normalar va muammolari"

2.M.Ahronqulova"Hozirgi o'zbek adabiy tili" 1-qism

3.Qo'shnazarova Maftuna "Frazemalarda antisemiya" maqolasi

4.Shaxnoza Kuvanova "Repetitor" nemis tilidan qo'llanma